

**PISA 2022 XALQARO BAHOLASH DASTURIDA QATNASHISH
O'QUVCHLARINING KREATIV FIKRLASHINI OSHIRISH**

Tashmurodova Shoira

Denov tumani 76-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Normuratova Gulchehra

Denov tumani 76-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada PISA 2022 xalqaro baholash dasturida o'quvchilarning kreativ fikrlashini yanada oshirish va rivojlantirish maqsadida qilinayotgan ishlar, kreativ fikrlashning asosiy maqsadi, ahamiyati, o'ziga xos cheklovlari hamda kreativ fikrlashni shakllantiruvchi shaxsiy omillar haqida keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Kreativ fikrlash, kreativ, yozma, visual ifodalar, konvergen, divergent fikrlashlar.*

O'zbekistonda ham xalqaro baholash dasturida PISA 2022 tadqiqoti o'tkazilishi rejalashtirilgan. Bu dasturga qatnashish uchun o'quvchilarning kreativ fikrlashini oshirishga qaratilmoqda. PISA 2022 tadqiqotlari faqatgina 15 yoshli o'quvchilardan kutiladigan kreativ fikrlash jarayonlariga qaratiladi. Mazkur xalqaro loyiha faqat ijodkor shaxslarni ajratib olishni maqsad qilmaydi, aksincha o'quvchilar qidirish hamda ifodalashda ijodiy fikrlash qobiliyatini va bu qobiliyatning o'qitish yondashuvi, maktab faoliyati yoki ta'lim tizimining boshqa xususiyatlari bilan qanday bog'liqligi tavsiflaydi.

PISA xalqaro tadqiqotining oldiga qo'ygan asosiy maqsadi o'quvchilarning ta'lim siyosati va pedagogikada yaqqol natija beradigan kreativ fikrlash ko'nikmasiga oid xalqaro miqyosdagi qiyosiy ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat. Shuning uchun, nazarda tutilayotgan kreativ fikrlash ko'nikmasi ta'lim olish orqali shakllantiriladi, ta'lim jarayonida kreativ fikrlash ko'nikmasining turli

imkoniyatlari aniq ko'rsatib berilishi va baholovchi topshiriqlarda o'quvchilarning o'zlashtirishi bilan bog'langan bo'lishi, baholashda qamrab olingan mazmun sohalarini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan fanlar bilan chambarchas bog'langan bo'lishi, test topshiriqlari o'quvchilar tomonidan, ham sinfda ham sinfdan tashqarida bajariladigan mashg'ulotlarga yaqin bo'lishi bilan birga, ijodiy yutuq va muvaffaqiyatni ta'minlaydigan darajada ishonchli bo'lishi kerak.

Kreativ fikrlashning ahamiyati shundaki, xalqaro tadqiqotda kreativ fikrlashni baholash yo'nalishining joriy etilishi ta'lim siyosati va pedagogika sohalarida ajobiy o'zgarishlar qilishini qo'llab-quvvatlaydi. Dalillarga asoslangan qarorlar chiqarishga imkon beradigan ishonchli, amaliy va huquqiy baholash vositalari bilan ta'minlaydi.

Ta'limning asosiy ahamiyati o'quvchilarni jamiyatda yutuqqa erishishlari uchun kerakli malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Kreativ fikrlash bugungi yoshlarni rivojlanishlari uchun kerakli kompetensiya bilan ta'minlaydi. Maktab o'quvchilarini o'z qobiliyatlarini kashf etishlariga, rivojlantirishlariga yordam beradi. Kreativ fikrlashning ahamiyati shundaki, xalqaro tadqiqotda kreativ fikrlashni baholash yo'nalishining joriy etilishi ta'lim siyosati va pedagogika sohalarida ajobiy o'zgarishlar qilishini qo'llab-quvvatlaydi. Dalillarga asoslangan qarorlar chiqarishga imkon beradigan ishonchli, amaliy va huquqiy baholash vositalari bilan ta'minlaydi.

Ta'limning asosiy ahamiyati o'quvchilarni jamiyatda yutuqqa erishishlari uchun kerakli malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Kreativ fikrlash bugungi yoshlarni rivojlanishlari uchun kerakli kompetensiya bilan ta'minlaydi. Maktab o'quvchilarini o'z qobiliyatlarini kashf etishlariga, rivojlantirishlariga yordam beradi.

PISA tadqiqotlarida kreativ fikrlashning qator omillari borasida ma'lumotlar to'plash murakkab, ammo, shu bilan birgalikda, amalga oshirish mumkin bo'lgan vazifalar sirasiga kiradi. PISA dasturidagi o'quvchilarning kreativ fikrlashini baholanishi ikki qismdan, testlar va umumiy ma'lumotlardan iborat. Tadqiqot doirasida berilgan testlarda fikr-mulohaza hosil qilish, baholash va takomillashtirish

uchun kerakli vazifalar bilan ishlash chog'ida o'quvchilarga kreativ fiklash jarayonini shakllantiradigan darajadagi ma'lumotlar beriladi. Umumiy ma'lumotlar esa mazkur ma'lumotlarni o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalariga oid boshqa omillar, jumladan, kreativ yondashuvlar (ochiqlik, maqsadga yo'naltirilganlik va qat'iy ishonch), maktab muhitini idrok etishi ham sinfda va sinfdan tashqarida bajaradigan mashg'ulotlarda faol ishtirok etishi haqidagi ko'rsatkichlar bilan to'ldiriladi. Kreativ fikrlash o'zi nima?

O'quvchilarning tasavvurlarini ta'sirchan tarzda ifodalash, bilim olishga undovchi, original va samarali yechim topishga yo'naltiruvchi g'oyalarni shakllantirish, baholash va takomillashtirish konsepsiyasi.

O'quvchilarning g'oyalar yaratish yangi g'oyalarga nisbatan munosabatlarini bildirishi va kutgan natijaga kelmaguncha g'oyalarni yaratishda davom etish.

Testlarda o'quvchilarning tug'ma qobiliyatiga ega bo'lishning ahamiyati kamaytirilib, kreativ fikrlashga imkon beradigan o'zgaruvchan iqtidorlarga katta e'tibor qaratiladi.

Baholash jarayonida kreativ fikrlashning ayrim o'ziga xos omillari boshqalariga qaraganda yaxshiroq yoritilgan. Misol uchun, ta'lim jarayonida jamoaviy yondashuv qobiliyatlari bilim hosil qilishning omili hisoblangani bois (garchi ayrim test topshiriqlarida o'quvchilarning jamoa bilan ishlash ko'nikmalari baholanib, takomillashtirilsada), o'quvchilarning jamoada ishlashlarini ta'minlashda tashkiliy hamda texnik qiyinchiliklar mavjud bo'lganini inobatga olib PISA tadqiqotlarida o'quvchilarning birgalikda va jamoaviy fikrlash qobiliyatini bevosita baholanmaydi. Shunday bo'lsada, kelgusida o'quvchilarning kreativ fikrlashlarini baholash jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalari mazkur tadqiqot doirasida o'quvchilarning ta'lim jarayonida kreativ fikrlashning eng muhim o'ziga xos omili sifatida e'tirof etiladi.

O'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish bir necha sohalarga ajratiladi. Mavjud adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlashni qamrab olishi uchun yaxshiroq bo'ladi. Shunday bo'lsada, PISA tadqiqotlariga qo'yiladigan ayrim amaliy va mantiqiy cheklovlar PISA 2022 o'quvchilarining kreativ fikrlashlarini

baholovchi xalqaro dasturga kiritilgan tamoyillar uchun muhim tayanch vazifasini o'taydi.

Birinchi cheklov test topshiruvchi o'quvchilarning yoshi bilan bog'liq. Garchi, PISA tadqiqoti nazarda tutilgan yoshdagi o'quvchilar (15 yoshli o'quvchilar) keng sohada cheklangan miqdordagi bilim va tajribaga ega bo'lsada, baholash uchun tanlab olingan topshiriqlar dunyodagi ko'p sonli o'quvchilar egallashlari mumkin bo'lgan (chizmachilik, yozish yoki muammoni hal qilish kabi) bilim va tajribalarga asoslangan bo'lishi kerak. Baholash sohasi (va ularga tegishli topshiriqlar)ni ham 15 yoshli o'quvchilar egallashlari mumkin bo'lgan kreativ fikrlash ko'nikmalarini real jihatdan namoyon qilishlarini aks ettirishi shart.

Ikkinchi cheklov esa testlar uchun ajratilgan vaqt me'yorlaridir. PISA baholash dasturida belgilangan joriy talablarga ko'ra, o'quvchilar bir soatga mo'ljallangan kreativ fikrlash testlarni bajaradi. Bu degani, har bir sohaga tegishli yetarli miqdordagi ma'lumotlar to'planishini ta'minlash maqsadida beriladigan baholash topshiriqlari sohasi cheklangan bo'lishi nazarda tutiladi. PISA tadqiqotlari o'quvchilar bilimini alohida baholashga emas, balki mamlakatlar miqyosida baholashga qaratilganligi bois, unda o'quvchilarga turli mavzularga doir (ba'zilar bir necha mavzularni qamrab olgan bo'lishi mumkin) har xil topshiriqlarni bajarishlari uchun takroriy tartibdagi test olish usulidan foydalanishi mumkin. Shunday bo'lsada, har bir mavzu kesimida o'quvchilarning o'zlashtirishlarini mamlakat miqyosida ishonchli tarzda baholashni ta'minlash maqsadida har bir mavzu yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajarish uchun yetarli miqdorda vaqt belgilanadi.

Uchunchi cheklov PISA baholash platformasi standarti doirasida o'quvchilarning kreativ fikrlashlarini tekshiruvchi testlardan foydalanish zaruriyati qo'yadi. PISA test topshiriqlari internet tarmog'iga ulanmagan va monitori sensorli bo'lmagan standart kompyuterlar yordamida tekshiriladi. Mazkur topshiriqlar platformasi qator topshiriqlar, javob variantlari, jumladan, ko'p tanlovli savollar, matn kiritish, taklif etilgan javob variantlaridan birini tanlash kerak bo'lgan testlar, (matn yoki tasvir ichiga tugmachani bosib o'qish mumkin bo'lgan) dialogli

interfeyslar hamda interfaol chizmalar va grafiklardan tashkil topgan. Ushbu baholash dasturini ishlab chiqish jarayonida topshiriqlar platformasiga chizish uchun uskunalari paneli kabi yangi funksional imkoniyatlarni kiritish mumkin bo'lganligi tufayli, baholash dasturi doirasida berilgan mavzularni tanlash va topshiriqlarni tuzishda platformaning texnik imkoniyatlariga katta e'tibor qaratish talab etildi.

Ushbu asosiy cheklovlarni inobatga olgan hamda turli darajalardagi kreativlik sohasidagi adabiyotlarga tayangan holda PISA 2022 o'quvchilarning kreativ fikrlashlarini baholash xalqaro dasturi ikkita keng tematik mazmun sohasini o'z ichiga oladi, bular: “kreativ ifoda, bilim hosil qilish va muammoni kreativ hal qilish”. “Kreativ ifoda” kreativ fikrlashda inson ichki dunyosini boshqalar bilan o'zaro ifodalash holatlariga nisbatan ishlatiladi. Mazkur tematik mazmun sohasi bundan tashqari “yozma ifoda” va “vizual ifodalash” sohalariga bo'linadi. O'ziga xoslik, estetika, tasavvur va ta'sirchan harakatli javob, asosan, ushbu sohalarda kreativ faollikni tavsiflaydi. Aksincha, “bilim hosil qilish va muammoni kreativ hali qilish” ijodiy yondashuv (faqat bir yechim bilangina cheklanib qolmaydigan) ochiq savollar yoki muammolar tadqiq etish bilan bog'liq kreativ fikrlash ko'nikmasidan funksional tarzda foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu “ilmiy muammoni hal qilish” va “ijtimoiy muammoni hal qilish” kabi turkumlarga bo'linadi. Bu turkumlarda ijodiy yondashuv “yaxshiroq yakun” demakdir, shunday ekan, u o'ziga xos, innovatsion, samarali va maqsadga muvofiq yechimlarni topish bilan xarakterlanadi.

Kreativ fikrlashni shakillantiruvchi shaxsiy omillar ham mavjud. Bular:

1. Aqli ko'nikmalar;
2. Tajribalarni o'rganishga va bilim olishga ochiqlik;
3. Bilim sohasining tayyorgarligi;
4. Maqsadga yo'nalganlik va ijodkorlik borasida o'z-o'ziga ishonch.

Aqliy ko'nikmalar konvergent va divergent fikrlashlarni o'z ichiga oladi.

Konvergent fikrlash – muammoga yechim topish uchun izlanishning an'anaviy va mantiqiy strategiyasini qo'llash, aniqlash va to'plangan ma'lumotlarga asosan

qaror qabul qilish qobiliyati.

Divergent fikrlash – muammolarga avval taklif etilmagan, yangi, g'ayrioddiy yoki hayratlanarli javob topishdir.

Tajribalarni o'rganishga va bilim olishga ochiqlik. Ko'pgina kreativ odamlar fikrlashga ishtiyoqmand bo'lib, “tajribalarni o'rganishga” va “bilim olishga” ochiqlik fazilatlariga ega.

Bilim sohasining tayyorgarligi. Insonda bilim qanchalik ko'p bo'lsa va u sohaga oid turli ma'lumotlarning bir-biriga bog'liqligini yaxshiroq tushunsa, kreativ g'oyalar kashf etish imkoniyati kattaroq bo'ladi.

Maqsadga yo'nalganlik va ijodkorlik borasida o'z-o'ziga ishonch. Ijodkor va yaratuvchan insonlar “sa'y – harakat qilishga o'zlarida xohish – istak topa oladigan” insonlar. Ijodkor insonlar uchun xos bo'lgan yetakchi xususiyatlaridan biri sabrmatonat.

Kreativ yondashuvning ma'lum shakllari madaniy jihatdan bir-biridan farq qilsa, ta'lim sohasida va dunyo bo'ylab o'qitiladigan fanlar ham shunday farqlar ko'zga tashlansa, mazkur faoliyat sohalari bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirishlarida ham qaysidir ma'nodagi tafovutlarseziladi. O'quvchilarni birdan ortiq faoliyat sohasida ishlashga undash orqali kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishdagi kamchilik va kuchli jihatlarini mamlakatlar miqyosida aniqlash imkoni tug'iladi. To'plangan ma'lumotlar kreativ fikrlash ko'nikmasi maktablarda turli sohalar bo'yicha qanday o'qitilishi kerakligito'g'risidagi muhim xulosalar bilan birga o'quvchilarning o'z fikr-mulohazalarini ifodalash usullari va muayyan muammoga mustaqil yechim topishga yo'naltirilishdagi tafovutlarni aniqlaydi.

Shunday qilib PISA 2022 dasturida qatnashish uchun o'quvchilarning kreativ fikrlashini oshirishga juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu bilan yurtimizning rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shadi va o'quvchilarning fikr-g'oyalarini shakillantirib, uni takomillashtirishga munosib hissasini qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Amabile, T. (1985), “Motivation and creativity: effects of motivational orientation on creative writers”, Journal of Personality and Social Psychology,

Vol. 48\2. pp. 393-399 (accessed on 14 February 2018).

2. Amabile, T. (1996), *Creativity In Context: Update To The Social Psychology Of Creativity*, Westview Press, Boulder, CO.
3. Bear, J. (2016), “Creativity doesn’t develop in a vacuum”, in Barbot, B (ed), *Perspectives on Creativity Development: New Directions for Child and Adolescent Development*, Wiley Periodicals, Inc.
4. Barbot, B. and B. Heuser (2017), “Creativity and Identity Formation in Adolescence: A Developmental Perspective”, in *The Creative Self*, Elsevier.
5. Batey, M. and A. Furnham (2006), “Creativity, intelligence, and personality: a critical review of the scattered literature”, *General Psychology Monographs*, Vol. 132\4, pp. 355-429.